GEOGRAFIYA

UDK 551.4 (575.14) **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss4/a91**

O‘RTA ZARAFSHON KONUSSIMON YOYILMA LANDSHAFT KOMPLEKSLARI

ЛАНДШАФТНЫЕ КОМПЛЕКСЫ КОНУСОВ ВЫНОСОВ СРЕДНОГО ЗАРАФШАНА

LANDSCAPE COMPLEXES OF CONES OF MIDDLE ZARAFSHAN

Eshquvvatov Bekzod Beqqulovich[1]

[1]Eshquvvatov Bekzod Beqqulovich – SH.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Geografiya va ekologiya fakulteti, Geografiya va tabiiy resurslar kafedrasi dotsenti v.b., geografiya fanlari falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya

Ushbu maqolada dala ekspeditsiya, geografik axborot tizimlari, bibliografik adabiyotlar tahlili tadqiqot usullari asosida O‘rta Zarafshon hududida o‘ziga xos tabiiy sharoitga ega bo‘lgan konussimon yoyilma landshaft komplekslarini tabiiy sharoiti, vujudga kelishi, shakllanishi va ulardan xo‘jalikda foydalanish nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Natijada konussimon yoyilma landshaft komplekslaridan iqtisodiyot tarmoqlarida foydalanish nuqtai-nazaridan baholash imkonini berdi.

Аннотация

В данной статье на основе методов исследования полевых экспедиций, географических информационных систем, анализа библиографической литературы анализируются конусообразные равнинные ландшафтные комплексы с уникальными природными условиями в Среднем Заравшане с точки зрения их природных условий, возникновения, формирования и их использования в экономике. В результате конический разворот позволил оценить ландшафтные комплексы с точки зрения их использования в отраслях экономики.

Abstract

In this article on the basis of research methods of field expeditions, geographical information systems, analysis of bibliographic literature cone-shaped plain landscape complexes with unique natural conditions in Middle Zaravshan are analyzed in terms of their natural conditions, occurrence, formation and their use in the economy. As a result, the cone-shaped reversal allowed to evaluate the landscape complexes in terms of their utilization in the sectors of the economy.

Kalit so‘zlar: *landshaft, konussimon yoyilma, akkumulyasiya, transportirovka, yonbag‘ir, qiyalik darajasi, mikrozona, differensiatsiya, balandlik,modda va energiya, migratsiya.*

Ключевые слова: *ландшафт, конусов выносов, аккумуляция, транспортировка, уровень склона, микрозона, дифференциация, высота, вещество и энергия, миграция.*

Key words: *landscape, carry cones, accumulation, transportation, level of slope, microzone, differentiation, height, substance and energy, migration.*

KIRISH

O‘zbekistonning tog‘oldi prolyuvial, allyuvial-prolyuvial tekisliklari geomorfologik jihatdan murakkab tuzilgan bo‘lib, ularning strukturasi bir-biridan keskin farq qiluvchi ikki xil relyef kompleksidan tarkib topgan. Birinchi relyef kompleksi qiyaligi bir xil yo‘nalishda tog‘ va adirlar etagidan tekislik yoki vodiy tomon asta-sekin pasayib boradigan prolyuvial tekisliklardan iborat. Ikkinchi tipdagi relyef kompleksi esa daryo va soylar tog‘ hamda adirlarni kesib chiqqan joylarda yarim doira shaklida yelpig‘ichsimon tarqalgan va qabariqsimon ko‘rinishga ega bo‘lgan qiya yonbag‘ir hosil qilib, yuqoridan atrof tomon sezilarli darajada pasayib boradigan konussimon yoyilmalardan tarkib topgan. Bugungi kunda insonlarning oziq-ovqat va qishloq xo‘jalik ekinlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida tog‘oldi tekislik va yoyilma landshaft komplekslaridan qishloq xo‘jaligida intensiv foydalanish kabi tadqiqot ishlarini amalga oshirish fanimiz oldidagi dolzarb muammolar sifatida o‘z yechimini kutmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Konussimon yoyilma — mayda va yirik yotqiziqlar ustida, keskin arid iqlim sharoitda vujudga kelgan va shakllangan tabiiy sharoiti juda qulay hududlar bo‘lib, ular ancha yosh geosistemalardir, ularning yer yuzasi quyi qismida yuqori qismiga tomon ko‘tarilib boradi. Konussimon yoyilmalar qishloq xo‘jaligi maqsadlarida foydalanish uchun juda qulay hududlar bo‘lib,

ular xalq xo‘jaligida juda katta ahamiyat kasb etadi. Konussimon yoyilmalar issiqlik resurslariga, yerusti va yerosti suvlariga boy, tuproq qoplami yaxshi shakllangan, ularni o‘zlashtirish uchun qulay bo‘lib, barcha agrotexnik talablarga mos keladi. Shuning uchun ular qadimdan inson xo‘jalik faoliyati ta’sirida o‘zlashtirilib kelingan. Konussimon yoyilmalar O‘rta Zarafshon havzasida keng tarqalgan bo‘lib, Chaqilkalon, Qoratepa, Oqtog‘ va Qoratog‘ tog‘oldi qismlarida ular yaxshi rivojlangan [6; 154-156 b.].


Konussimon yoyilmalarning vujudga kelishi, shakllanishi, geografik tarqalishi va ko‘pligi bevosita tog‘ yonbag‘irlarining parchalanganlik darajasi hamda gidrografik to‘rning zichligi bilan bog‘liq. Tog‘lardan oqib tushadigan jilg‘alar, soylar, daryolarning soni qancha ko‘p bo‘lsa, konussimon yoyilmalar va quruq deltalarning soni ham shuncha ko‘p bo‘ladi yoki aksincha, daryo va soylarning soni qancha kam bo‘lsa, konussimon yoyilmalar hamda quruq deltalarning soni ham shuncha kam bo‘ladi. Shunday ekan, tog‘dan oqib tushadigan har qaysi soy va daryo tog‘oldi tekisligiga chiqqandan keyin tarmoqlanib, o‘zining mustaqil konussimon yoyilmasini va quruq deltasini shakllantiradi hamda barqaror rivojlantiradi [2; 5-367 b.].

O‘zbekiston va O‘rta Osiyo hududida keng tarqalgan konussimon yoyilma landshaftlarni tadqiq etishda va ularga bag‘ishlangan ilmiy asarlarni chop etishda V.N.Veber (1929), N.I.Nikolayev (1946, 1948), N.V.Rogovskaya (1956), D.P.Rezvoy (1957), N.P.Kostenko (1962, 1970), A.A.Abdulqosimov (1966, 1983, 2009), Yu.Sultonov (1974), M.Sh.Ishankulov (1979, 1982, 1986), K.M.Boymirzayev (1995, 2007), A.K.O‘razboev (1998), O.M.Qo‘ziboyeva (2004, 2009), Q.S.Yarashev (2009, 2022) va boshqalarning xizmati katta.

O‘rta Zarafshon havzasida konussimon yoyilma landshaftlarning geografik tarqalishi asimmetrik xarakterga ega. Bu yerda obyektiv mavjud bo‘lgan konussimon yoyilmalarning katta qismi havzaning janubiy va shimoliy qismlarida joylashgan. Bunga sabab botiqning shimoliy va janubiy tomonini o‘rab turgan o‘rtacha balandlikdagi Chaqilkalon, Qoratepa, Nurota, Oqtog‘, Qoratog‘ va boshqa tizmalardan boshlanuvchi G‘ijduvonsoy, G‘o‘ssoy, Urgutsoy, Omonqo‘tonsoy, Sazag‘onsoy, Tersaksoy, Ohaliksoy, Oqsoy, Oltinsoy, Maydonsoy, Ko‘ksaroysoy, Oqtepasoy, To‘sinsoy va boshqa soylar oqib kelib, ularning har biri o‘zining konussimon yoyilmalarni shakllantiradi. Havzaning g‘arbiy qismidagi Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘larida doimiy oqar soylar kam uchraydi. Mavjud bo‘lgan quruqsoylar efemer xarakterga ega bo‘lib, ularning konussimon yoyilmalari ham juda kichik. Bu yerda shuni ta’kidlab o‘tish joizki, arid va yarim arid kontinental iqlim sharoitida konussimon yoyilmalarning alohida genetik relyef kompleksi sifatida vujudga kelishi va shu asosda o‘ziga xos konussimon yoyilma landshaftlarning tarkib topishi, shakllanishi hamda barqaror rivojlanishi bevosita daryo va soylarning oqimlari, ularning uzluksiz davom etib kelayotgan yaratuvchanlik faoliyati bilan bog‘liq.

Respublikamizdagi, jumladan O‘rta Zarafshon havzasidagi barcha konussimon yoyilmalarning vujudga kelishi va shakllanishida ishtirok etgan allyuvial-prolyuvial yotqiziqlarning mexanik tarkibi turli xil kattalikdagi shag‘al toshlardan, mayda zarrachali qum va gillardan tashkil topgan bo‘lib, ular yoyilmaning yuqori qismidan to etagigacha muayyan gidrodinamik qonuniyatga bo‘ysungan holda saralanib yotqizilgan. Shu sababli barcha konussimon yoyilmalarda, ularning yonbag‘ri bo‘ylab yuqoridan quyi tomon yo‘nalishda dag‘al tog‘ jinslarining kamayishi va aksincha mayda zarrachali uvoq jinslarning ortib borishi kuzatiladi (1-rasm).

N.V.Ragovskaya [4; 5-136 b.]. O‘rta Osiyo va O‘zbekiston o‘lkasining tog‘oldi tekisliklarida qadimdan rivojlanib kelgan sug‘oriladigan agrolandshaftlarning geomorfologik, gidrogeologik va muhandislik-geologik xususiyatlarini tadqiq etish bilan shug‘ullanib, bu zonada keng tarqalgan konussimon yoyilmalarning relyef tuzilishini, litologik tarkibini va ularning mikrozonal tabaqalanishini ham o‘rgangan. Muallif konussimon yoyilmalarni uchta zonaga ajratadi: 1) shag‘alli toshloq yuqori zona; 2) soz tuproqli markaziy zona; 3)gilli quyi zona.



1-rasm. Konussimon yoyilma ideallashtirilgan profili

Erozion relyef shakllari oqayotgan suvlarning bunyodkor yoki vayronkor faoliyati bilan bog‘liq. Daryo va soylarning faoliyati bilan bog‘liq bunday relyef shakllariga daralar, daryo vodiylari, jarliklar, konussimon yoyilmalar va boshqalar misol bo‘ladi. Ular eroziya jarayonlari, ya’ni yemirilish, yuvilish va boshqa nurash jarayonlari mahsulotlarini transportirovkasi hamda akkumulyasiyasi natijasida vujudga keladi yoki shakllanadi [1; 5-37 b.].


O‘rta Zarafshon havzasining gidrografik to‘rini tashkil etuvchi barcha daryolar, irmoqlar va soylar bir-biri bilan murakkab aloqada bo‘lgan, ya’ni paragenetik va paradinamik aloqadorlikda bo‘lgan landshaft komplekslarni vujudga kelishida hamda dinamik rivojlanishida o‘zlarining bir tomonlama yo‘nalgan oqimi, eroziya natijasida hosil bo‘lgan jinslarni, oqiziqlarni oqizib kelishi va ularni tog‘oldi tekisliklarida akkumulyasiya qilish kabi faoliyati bilan faol ishtirok etadi. Har bir daryo, irmoq, soy va hatto jarlik o‘zining faoliyati natijasida turli kattalikdagi o‘zlarining yoyilmalarini hosil qiladi. Ular o‘zlarining egallab olgan maydonlariga, morfologik strukturasining murakkabligiga qarab turli birlikdagi landshaft komplekslarini vujudga keltiradi [7; 135-137 b]. Bu landshaft komplekslar bizning ta’birimizda doimiy ravishda bir-biri bilan chambarchas bog‘langan, mustahkam aloqada bo‘lgan o‘ziga xos geomorfologik struktura bo‘libgina qolmasdan, makon va zamonda landshaft kompleksining turli morfologik birliklarini shakllanishiga sabab bo‘ladi. Quyida O‘rta Zarafshon havzasidagi ayrim soylarning konussimon yoyilmalarga majmuali tavsif berib o‘tishga harakat qilamiz.

Omonqo‘tonsoy yoyilmasi. Omonqo‘tonsoy havzasi Qoratepa tog‘lari va uning sharqida joylashgan Chaqilkalon tog‘larini bir-biridan ajratib turadi. Soyning manbai Taxtaqoracha dovoni (1881,2 m) yaqinida joylashgan bo‘lib, manbaidan tekislikka chiqishgacha bo‘lgan umumiy uzunligi 19 km ni tashkil etadi. Umumiy maydoni 58 km^2 ga teng. O‘rta qismida havzaning kengligi 100-150 m dan quyi qismiga tomon kengayib boradi. Vodiyning quyi qismida mevali bog‘lar, dam olish uylari va boshqalar joylashgan. Soy manbasidan 2,7 km pastroqda katta chap irmoq daryoga quyiladi. Bu yerda vodiyning kengligi 50-60 m, oqim kanalining kengligi 3,5 dan 7,5 m gacha bo‘lib, u asosan yaxshi saralangan o‘rtacha kattalikda va mayda toshlar bilan qoplangan. Ular ichida paleozoyning ohaktoshlari ustunlik qiladi.

Omonqo‘tonsoy va uning vodiysi dengiz sathidan 1000 m (982 m) balandlikda tog‘oldi tekisligiga chiqadi. Bu yerda vodiy keskin ravishda kengayib, qisman past tizmalar bilan chegaralangan (shimoliy va g‘arbiy tomondan) keng yoyilmasini hosil qiladi. Shimoli-sharqda ikki alohida balandlik bor, ularning yonbag‘irlarida paleozoy jinslari joylashgan. Ushbu yoyilma

qismining deyarli barcha hududini binolar, bog‘lar, tamaki va boshqa ekin plantatsiyalari egallaydi. Bug‘doy ekinlarini yetishtirish uchun faqat Chaqilkalon tog‘lari etagidagi konus yoyilmalardan foydalaniladi.

Tog‘oldi zonasiga chiqqandan keyin Omonqo‘tonsoy bir necha kanallarga bo‘linadi. Sag‘onoqsoy jarligi deb nomlangan asosiy oqim kanali shimoli-sharqqa qarab yo‘nalgan. U tog‘ mintaqasidan 11 km uzoqlikda Yangiariq kanaliga tutashgan, ammo undan keyin Jag‘alboyli qishlog‘i yaqinida u yana kuchli quruq vodiy ko‘rinishini oladi. Nayman qishlog‘i yaqinida Darg‘om kanalidan o‘tib, shimoliy-shimoli-g‘arbiy yo‘nalishda So‘g‘diyona massivi atrofi va undan keyin Samarqandning shimoli-g‘arbiy tomoniga cho‘zilgan. Vodiy shaharning shimoli-g‘arbiy qismida, Qoradaryo yaqinida joylashgan Chaqqa qishlog‘i hududini o‘z ichiga qamrab oladi. Omonqo‘tonsoy vodiysining tog‘dan to Zarafshonning Qoradaryo tarmog‘i bilan tutashgan joyigacha bo‘lgan uzunligi 53 km.



2-rasm. Omonqo‘tonsoy yoyilmasini qiyalik darajasi (slope) asosida qishloq xo‘jalik maqsadlarida baholash karta-sxemasi

Yoyilma inson xo‘jalik faoliyati ta’sirida kuchli o‘zlashtirilgan va agrolandshaftlar bilan band qilingan. Yoyilmada sug‘orma dehqonchilikni rivojlantirish maqsadida Qoratepa suv ombori qurilgan, agrolandshaftlarni doimiy suv bilan ta’minlash maqsadida Yangiariq kanali, Darg‘om kanallari o‘tkazilgan. Yoyilma hududida bog‘lar, tokzorlar, turli sabzavot ekinlari, tamaki, tut plantatsiyalari barpo etilgan. Biz olib borgan izlanishlar hamda zamonaviy tadqiqot usullari bugungi kunda Omonqo‘tonsoy yoyilmasidan qishloq xo‘jalik maqsadlarida foydalanish nuqtai nazaridan baholash imkonini berdi (2-rasm).

Oltinsoy-Maydonsoy yoyilmasi. Oltinsoy-Maydonsoy konus yoyilma landshafti Oqtog‘ning janubiy yonbag‘ridagi yirik landshaftlardan biri bo‘lib, umumiy maydoni 16 km^2 maydonni egallab yotadi. Konus yoyilmaning sharqiy qismida kengligi 300-400 m, ammo g‘arbga tomon kengayib 3-3,5 km ni tashkil etadi. Landshaftning yuqori chegarasi taxminan dengiz sathidan 900-1050 m, quyi chegarasi esa 350-400 m dan o‘tadi. Uning yuzasi jarliklar bilan kuchli parchalangan. Erozion tepaliklarning balandligi 30-40 m, yuzasining kengligi 50-60 m ga yetadi.

Oltinsoy-Maydonsoy konus yoyilmasi hududida yillik o‘rtacha harorat 12-14^{0}C, yillik yog‘in miqdori esa 250-300 mm ni tashkil etadi. Landshaft kompleksining gidrografik tarmog‘i asosan Oqtog‘ning janubiy yonbag‘ridan oqib tushadigan Oqtepasoy, Chag‘irko‘lsoy, Oltinsoy va Maydonsoylar tashkil etadi. Ushbu soylarning asosiy to‘yinish manbai mavsumiy qor, bahorgi yomg‘ir va yer osti suvlari hisoblanadi. Shuning uchun ham faqat mart-may oylarida soylarning suvi konus yoyilmasigacha yetib keladi, madaniy o‘simliklarning vegetatsiyasi davrida esa qurib qoladi [3; 5-108 b.].

GEOGRAFIYA

Konus yoyilmasi agrolandshaftlarining asosiy suv manbai uning hududidan o‘tadigan Tos kanali (Damxo‘ja suvayirg‘ichida Zarafshon daryosidan suv oladi) va yer osti suvlaridir. Prolyuvial va allyuvial yotqiziqlar orasidagi yer osti suvlarining sathi yoyilmaning yuqori qismidan quyi qismi tomon o‘zgarib boradi. Oltinsoy-Maydonsoy yoyilmasi tuproqlarining xususiyati yoyilma hududida tarqalgan yotqiziqlar xarakteri bilan bog‘liqdir. Yoyilmaning shimoliy qismidagi parchalangan relyefning ko‘tarilgan qismlarining delyuvial va ellyuvial yotqiziqlarida mexanik tarkibi lyossimon bo‘lgan donador tipik bo‘z tuproqlar, relyefning pasaygan va yoyilmaning o‘rta qismlarida och tusli bo‘z tuproqlar, quyi qismlarida allyuvial yotqiziqlar ustida qalinligi 1-2 m bo‘lgan agroirrigatsion madaniy tuproqlar shakllangan. Yoyilma landshaftining tabiiy o‘simlik qoplami asosan chalacho‘l o‘simliklaridan iborat bo‘lib, o‘zlashtirilmagan qismlarida rang, qo‘ng‘irbosh, mingbosh, shuvoq, oqquray, yantoq kabi o‘simliklar, sug‘orma dehqonchilik qilinadigan qismida asosan paxta va bahorikor g‘alla ekiladi. Yoyilmaning yuqori qismida bog‘dorchilik rivojlangan.

Ko‘ksaroysoy yoyilmasi. Ko‘ksaroysoy konus yoyilmasi Oqtog‘ning janubi-g‘arbiy yonbag‘rida, Ko‘ksaroysoyning tog‘oldi adir zonasidan tekislikka chiqish qismida joylashgan bo‘lib, umumiy maydoni 16,6 km^2 ni tashkil etadi. Ko‘ksaroysoy Oqtog‘ning janubi-g‘arbiy yonbag‘irlaridan boshlanadigan Angidonsoy, Shaldiroqsoy, Yong‘oqlisoy, Quvraysoylarning qo‘shilishidan hosil bo‘lib, Xo‘ja qishlog‘idan o‘zani kengayib konus yoyilmasini hosil qiladi. Yoyilmaning yuqori qismida Ko‘ksaroyning ikkita qayir usti terrasasi hosil bo‘lgan. Ushbu terrasalarning kengligi 3-4 m atrofida bo‘lib, birinchi terrasaning balandligi 1,5-2,5 m, ikkinchisining balandligi esa 3-4 m ni tashkil etadi.

Terrasalarning Ko‘ksaroy qishlog‘i atrofi va boshlanish joylaridagi yonbag‘irlarida tub jinslar, ya’ni, granit, kristalli slanets va qumtoshlar yer yuzasiga chiqib yotadi. Yoyilmaning o‘rta va quyi qismi soy suvi keltirgan prolyuvial va allyuvial tog‘ jinslari bilan to‘ldirilgan. Yotqiziqlar oqim yo‘nalishi bo‘ylab saralanib boradi. Konus yoyilmaning boshlanish joyida yirik ishlov berilmagan yotqiziqlar, g‘adir-budir chaqir toshlar, o‘rta qismida shag‘alsimon toshloq yotqiziqlar, quyi qismida esa suglinkali qumoqsimon yotqiziqlar tarqalgan.

Yoyilmaning yer usti tuzilishi prolyuvial va alyuvial yotqiziqlardagi qiya tekislikdan iborat. Uning qiyaligi $3\text{-}5^0$ ni tashkil etadi. Tekislikning yuzasi kuchsiz parchalangan bo‘lib, boshlanish qismini hisobga olmaganda balandligi 1,5-2 m gacha bo‘lgan soy o‘zanyoni jarlik relyef shakllari uchraydi. Landshaft kompleksi joylashgan hududda iyul oyining o‘rtacha harorati $27\text{-}29^0$C, maksimal harorat $38\text{-}40^0$C, yanvarning o‘rtacha harorati $-1,5\text{-}2^0$C, eng past harorat $-30\text{-}32^0$C ga yetadi [3; 5-108 b.].

Yoyilmaning gidrologik sharoiti shu nom bilan ataladigan Ko‘ksaroysoy bilan bog‘liqdir. Soy Oqtog‘ tizmasining janubiy yonbag‘irlaridan dengiz sathidan 938 m balandlikdan boshlanib, havzasining umumiy maydoni 288 km^2 va o‘rtacha yillik suv sarfi 0,968 m^3/s ga teng. Soyning yillik suv oqimi o‘rtacha 11,5 mln m^3. To‘lin suv davri mart-aprel oylariga to‘g‘ri kelib, asosan yomg‘ir va yer osti suvlaridan to‘yinadi. Soy suvidan xo‘jalikda samarali foydalanish va uni tartibga solish maqsadida 2015 yilda Ko‘ksaroy suv ombori (dambasini uzunligi 434 m, balandligi 26 m, eni 10 m) barpo etilgan bo‘lib, uning umumiy suv sig‘imi 7,5 mln/m^3 ni tashkil etadi. Soy suvini to‘plash natijasida bugungi kunda 1800 ga yerda dehqonchilik qilish imkonini beradi. Agarda bugungi zamonaviy sug‘orish texnologiyalari hamda usullaridan foydalanilsa bu ko‘rsatkichni 2-3 baravarga oshirish mumkin. Yoyilmaning yuqori qismlarida grunt suvlarining sathi 35-40 m, quyi qismi atroflarida 15-20 m ni tashkil etadi. Ko‘ksaroysoy o‘zanida suv ombori qurilgandan keyin yuqori qismida grunt suvlarining sathi 20-25 m gacha ko‘tarilgan.

Ko‘ksaroysoy yoyilmasining tuproq qoplami adir oldi och bo‘z tuproqlaridan iborat bo‘lib, uning mexanik tarkibi yoyilmaning quyi va yuqori qismi tomon o‘zgarib boradi. Tuproq hosil qiluvchi ona jinslar shag‘alli-suglinkali va lyossimon-qumoqli prolyuvial yotqiziqlardan iboratdir. Bu yerdagi och bo‘z tuproqlarda chirindili qatlamning qalinligi 13-15 sm ni, chirindi miqdori esa 1-1,5% ga teng. Sug‘orma dehqonchilik rivojlangan quyi qismida Tos kanali atroflarida agroirrigatsion yotqiziqlar bilan almashinib, mexanik tarkibi suglinkali bo‘lgan madaniy qatlamlarni hosil qiladi va ularning qalinligi 1-1,5 m gacha yetadi. Efemer va efemeroidlar, ya’ni rang, qo‘ng‘irbosh, yaltirbosh, shuvoq, yantoq, qo‘ziquloq, mingbosh, oqquray, oqboshtikan kabi o‘simliklar tarqalgan [5; 5-132 b]. Yoyilmaning 45-50%i o‘zlashtirilgan bo‘lib, bog‘dorchilik va uzumchilik rivojlangan, qolgan qismlaridan yaylov sifatida foydalaniladi. Ko‘ksaroy suv ombori qurilgach yer resurslarida qisman

o‘zgarishlar bo‘ldi. Jumladan, yoyilmaning quyi qismlari suv bilan ta’minlanib, intensiv bog‘dorchilik, polizchilik uchun keng ko‘lamda o‘zlashtirila boshlandi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, arid iqlimli sharoitda shakllangan konussimon yoyilmalar qishloq xo‘jaligida foydalanishga yaroqli bo‘lishiga qaramasdan hanuzgacha ularning imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilgani yo‘q. Konussimon yoyilmalarning agroiqlimiy, agrokimyoviy holatini tahlili ushbu hududlarda zamonaviy sug‘orish usullarini qo‘llagan holda intensiv qishloq xo‘jaligini rivojlantirish imkoniyati yuqoridir. Konussimon yoyilmalarning geografik axborot tizimlari asosida qiyalik (slope) xususiyatlarini aks ettiruvchi kartalari landshaftlardan qishloq xo‘jaligida foydalanishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi, shuningdek meliorativ tadbirlarni amalga oshirishda yangi uslubiy imkoniyatlarni yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ишанкулов М.Ш. Ландшафты конусов выноса аридных территорий // Автореф. докт.дисс. –М., 1986. – 37 с. (Ishankulov M.Sh. Landscapes of alluvial fans of arid territories // Abstract of the thesis. doctoral diss. -M., 1986. - 37 p.).
2. Костенко Н.П. Развитие рельефа горных стран (на примере Средней Азии). –М.: Мысль, 1970. -367 с. (Kostenko N.P. The development of the relief of mountainous countries (on the example of Central Asia). –M.: Thought, 1970. -367 p.).
3. Рахматуллаев А. Ландшафты хребта Актау, их рациональное хозяйственное использование и охрана. – Ташкент: Фан, 1991. –108 с. (Rakhmatullaev A. Landscapes of the Aktau ridge, their rational economic use and protection. — Tashkent: Fan, 1991. -108 p.).
4. Роговская Н.В. Методика гидрогеологических и инженерно – геологических исследований на массивах орошения. –М.: Госгеолтехиздат, 1956. -136 с. (Rogovskaya N.V. Methods of hydrogeological and engineering — geological research on irrigation arrays. –M.: Gosgeoltekhizdat, 1956. -136 p.).
5. Саидов А.С. Ландшафты правобережья Среднего Зарафшана. -Ташкент: Фан, 1972. -132 с. (Saidov A.S. Landscapes of the right bank of the Middle Zarafshan. — Tashkent: Fan, 1972. — 132 p.).
6. Ярашев Қ.С., Эшқувватов Б.Б. Ўзбекистоннинг арид ҳудудларида тоғолди текислик ва конуссимон ёйилма ландшафтларнинг географик тарқалиши // Чўлланиш муаммолари: динамика, баҳолаш, ечим. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. -Самарқанд, 2019. –Б.154-156. (Yarashev K.S., Eshkuvvatov B.B. Geographic distribution of mountainous plain and conical flat landscapes in arid regions of Uzbekistan // Desertification problems: dynamics, assessment, solution. Proceedings of the international scientific and practical conference. — Samarkand, 2019. — P.154-156.)
7. Ярашев Қ.С. Сурхондарё ботиғи парагенетик ландшафт комплекслари ва уларни карталаштиришнинг айрим масалалари. //Ўзбекистон миллий атласини яратишнинг илмий-услубий асослари. – Тошкент, 2009. –Б. 135-137. (Yarashev K.S. Paragenetic landscape complexes of the Surkhandarya basin and some issues of their mapping. //Scientific-methodical foundations of creating the national atlas of Uzbekistan. — Tashkent, 2009. -B. 135-137.).